www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Aybsizlik prezumpsiyasi

Usmonova Dildora Shuxrat qizi

Toshkent davlat yuridik univeraiteti 3-bosqich talabasi

Aybsizlik prezumpsiyasi deganda aybdorning jinoyati qonunda belgilangan tartibda isbot qilinmaguncha, ushbu shaxsni aybsiz deb tasavvur qilish tushunilishi lozim. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etganlikda aybdor ekanligi qonuniy tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi Rim huquqshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, olimlar aybsizlik prezumpsiyasining belgilarini qadimgi yahudiy qonunlarida ham mavjud bo'lganligini aniqlashgan. Bu davrda aybsizlik prezumpsiyasidan foydalanish bugungi talqin etilayotgan darajada keng bo'lmagan, ya'ni, jamiyatning barcha a'zosi ham bu huquqdan foydalana olmagan. Prezumpsiyaning bu ko'rinishi tanlov prezumpsiyasi deb nomlangan. Ushbu prinsipdan faqat nomi ulug', sharafli, namunali hayot kechirgan shuningdek, yaxshi xulq-atvori bilan tanilgan insonlar, asosan, jamiyatning obro'li vakillari foydalana olishgan, xolos.

Aybsizlik prezumpsiyasi tushunchaning mazmun - mohiyati shundan iboratki, qonunchilikni buzganlikda ayblanayotgan har qanday shaxs o'zining aybsizligini isbotlashga majbur emas. Shuningdek, prokuratura organlari sodir etilgan jinoyat uchun dalil keltirmaguncha va sud tomonidan hukm chiqarilmaguncha, ayblanuvchi jinoyatchi deya e'tirof etilishi mumkin emas. Amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, aybsizlik prezumpsiyasi asosan jarayonning surishtiruv va tergov bosqichlarida belgilanadi. Agar ishda ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi shaxsning foydasiga talqin qilinishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lsa, ushbu holatlar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi shaxs foydasiga talqin etiladi. Vaziyatlar istalgan bosqichda, hatto hukm chiqarilgandan va e'lon qilingandan keyin ham aniqlanishi va tergovga yoki sudga taqdim etilishi mumkin.

Aybsizlik prezumpsiyasini asosan sud va tergov organlari tomonidan amalga oshirilishi, aybsiz shaxslarning jazolanishini bekor qilish imkonini beradi. Bu shundan iboratki, har bir ayblanayotgan shaxs tergov organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalanish huquqidan foydalanishi lozim. Aybsizlik prezumpsiyasi O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi bo'lgan Konstitutsiyada ham, shuningdek, Jinoyat kodeksida ham, bundan tashqari dunyo mamlakatlarining qonunchiliga ham mavjud, chunki ushbu prinsip har qanday qonunbuzarlik xatti - harakatlarida, shu jumladan ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqishda ham hisobga olinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 28-moddasida keltirib o'tilishicha, "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin…"[1]

[1] O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – 01.05.2023. 28-modda

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-protsessual kodeksida aybsizlik prezumptsiyasi 14modda bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, sudlanuvchining aybini isbotlash va oqlovchi dalillarni rad qilish vakolati prokurorga tegishli. Sud organi oqlovchi hamda ayblov faktlarni keltirishga haqli emas, sud yig'ilgan dalillar hamda ma'lumotlarni qonunga muvofiq sharhlashi va tahlil qilishi mumkin.[2]

Aybsizlik prezumpsiyasiga qaramasdan, sud protsessining barcha bosqichlarida ushbu pripsipni chetlab o'tish holatlari ham yo'q emas. Ayblanuvchi yoki gumondor shaxs hamda uning himoyachilari agar gumonlanuvchi shaxs haqiqatdan ham mavjud huquqbuzarlik yoki jinoyatni sodir etgan bo'lsa ham, surishtiruv, tergov hamda sud jarayonini kuzatib borishi shart. Ma'lum bir organ tomonidan uning konstitutsiyaviy hamda qonunda belgilab qo'yilgan huquqiga rioya qilmaslik aybdorga nisbatan og'irroq jazo tayinlanishini keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining tegishli boblarida aybsizlik prezumpsiyasi qoidalari aniq tavsiflangan:

- aybsiz odam jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas;
- ayblanuvchi shaxsni nisbatan yetarli dalillar taqdim etilgan shaxs deb atash mumkin;
- jinoiy ishda aybni oqlovchi va ayblovchi holatlar ta'minlanishi va hisobga olinishi kerak;
- sudlanuvchi jim turishi va o'zini oqlamasligi;
- guvohlik berish turli xil axloqiy va jismoniy ta'sir choralari qo'llanilmasdan, ixtiyoriy ravishda berilishi kerak;
- ayblanuvchining aybini tan olishi jazo tayinlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak emas, balki sodir etilgan jinoyat kuchli dalillar bilan tasdiqlanishi kerak.

Aybsizlik prezumpsiyasi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va hattoki sud tomonidan jinoyatchi deb tan olinganayotgan shaxsning qonuniy huquqlariga amal qilinishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Har bir shaxs, xoh u sud protsessida ishtirok etayotgan bo'lsin, xoh shunchaki jamiyatning bir a'zosi bo'lsin aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasi, mazmuni hamda ma'nosini bilishi lozim. Qonunda belgilab qo'yilgan shaxsning huquqlari va manfaatlariga oid bilimlarning yetishmasligi, ushbu shaxsning har qanday noqonuniy xatti-harakatlar uchun ayblanishga sabab bo'lishi mumkin. Sudgacha bo'lgan ish yuritish protsessida hech qanday holatda gumonlanuvchiga, guvohlarga yoki ayblov dalillarini yig'ib, fuqaroni himoya qilayotganlarga nisbatan bosim o'tkazilmasligi kerak. Tergovchi yoki surishtiruvchi gumondorni oqlaydigan faktlarni hisobga olishi va ish bayonnomasida qayd etishi lozim. Aybdorlikka yoki aybsizlikka oid har qanday dalillar yig'ilgandan keyin ish sudga o'tkaziladi. Shu o'rinda aytish lozimki, tergov organi vakillarining gumon qilinuvchiga nisbatan qilingan salbiy munosabati ham aybsizlik prezumpsiyasini buzish deya e'tirof etiladi. Shu va shunga o'xshash holatlar advokat tomonidan sud majlisida mijozini himoya qilish uchun ishlatilishi va sud organi tomonidan ayblanuvchi foydasiga talqin qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 23-moddasida keltirib o'tilishicha, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi

[2] Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasi – 12.12.1993. 14-modda

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

lozim. Qonun qo‘llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudla-nuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.[3]

Aybsizlik prezumpiyasining asosida umumiy, keng e’tirof etilgan axloq normasi yotadi, unga muvofiq har bir kishi aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz deb gumon qilinishi lozim. Aybsizlik prezumpsiyasi milliy qonunchiligimiz bilan birgalikda xalqaro huquq normalarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasida aybsizlik prezumpsiyasining har bir shaxsga berilgan daxlsiz huquq ekanligi qat’iy belgilab qo‘yilgan: Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta’minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir“.[4] Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Paktda hamda Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasida ham mazkur prinsipning alohida qoida sifatida belgilanganligi xalqaro miqyosda ham yuksak darajada umume’tirof etilishi lozim bo’lgan tamoyil sifatida belgilaydi. Yuqorida ham ta’kidlab o’tilganidek, aybsizlik prezumpsiyasi jinoiy va konstitutsiyaviy huquqning asosiy qoidasi sifatida ko’plab davlatlarda rasman qabul qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – 01.05.2023
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994
3. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi - 22.09.1994
4. O’zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharh.
5. Jinoyat protsessual huquqi: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M.A Rajabova tahriri ostida. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. -732 b.
6. Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasi. 12.12.1993.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi – 10.12.1948

[3] O’zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi – 22.09.1994. 23-modda

[4] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi- 10.12.1948. 11-modda